O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 27 - noyabr 366-9-0-Q/23 Sirdaryo viloyati hokimligi

Jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga yer uchastkasi ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy Reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 543-son qarori hamda yer ajratish materiallari vakolatli organlar ijobiy xulosalari bilan kelishilganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 5-, 20-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-, 10- va 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasining 2023-yil 10-oktabrdagi 01-04/2571-sonli xat bilan viloyat hokimiga qilgan murojaati qanoatlantirilsin hamda viloyatdagi tegishli tashkilot va korxonalarning ijobiy xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasiga Guliston shahrini bosh rejasi bo‘yicha kengayish hududiga tushgan Boyovut tumani, Dehqonobod massivi “Yangi avlod” mahalla fuqarolar yig‘ini (“Yangi O‘zbekiston” massivi) hududining tuman hokimligi zaxirasidagi aholi punktlarining yerlari hamda sanoat maqsadlariga mo‘ljallangan yerlardan “Yangi ma’muriy bino” qurish uchun 3q-konturdan jami 0,30 gektar A1724212016/9 raqamli yer uchastkasini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi

(B.Minasipov)ga:

“Yangi ma’muriy bino”ni qurilishi bo‘yicha belgilangan tartibda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib, ekspertizadan o‘tkazish hamda qurilish ishlarini o‘z muddatida amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarorini 31-bandi talablari asosida Qurilish bosh boshqarmasi hamda “O‘zGAShKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda “Yangi ma’muriy bino”ni qurish uchun ajratilgan yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilanishini ta’minlash majburiyatlari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (B.Minasipov) yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda viloyat yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari R.Boboyev va viloyat hokimining o‘rinbosari V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi **A.Maxmudaliyev**